

**BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA QADRIYATLAR SHAKKLANISH
JARAYONINING PEDAGOGIKA MOHIYATI****Normurotova Aziza Karim Qizi****Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti****“Boshlang'ich ta'lim metodikasi” kafedrası o'qituvchisi****E-mail: azizanormurodova68@gmail.com****UDK: 372.22.:14****<https://orcid.org/0009-0003-5244-2206>****<https://doi.org/10.5281/zenodo.22075108>****Kirish**

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning ta'lim-tarbiyaning samaradorligiga xizmat qiluvchi qarorlaridan biri bo'lgan, “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida”gi 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-sonli Qarorida quyidagi satrlar qayd etilgan: “Mustaqillik yillarida mamlakatimizda jamiyat hayotining ma'naviy-ma'rifiy asoslarini mustahkamlash, milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini hayotga joriy etish, yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbida Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun daxldorlik va mas'uliyat hissini oshirish, dinimiz, milliy urf-odatlarimiz va qadriyatlarimizga yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga yo'naltirilgan targ'ibot tizimi shakllandi.

Bu jarayonda Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi, uning joylardagi tuzilmalari hamda Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi tomonidan muayyan ishlar amalga oshirilganini qayd etish lozim”¹. Bu ,albatta, yoshlarimizning madaniy-ma'naviy ongini globallashtirish sharoitida turli xil yot fikr,g'oyalardan saqlashga yordam beradi.

Asosiy qism

Qadriyat tushunchasi turli sohalarda turlicha talqin qilinadi, jumladan, sotsiologiyada, falsafada , madaniy va pedagogik sohalarda ko'rishimiz mumkin.. Qadriyat bu ma'lum bir millatning ko'p yillar, asrlar davomida shakllangan xalqning tarixiy, ma'naviy, madaniy shakllanish bosqichini ifoda etadigan urf-odatlar, an'analar, e'tiqodlar, ijtimoiy-ma'naviy meyorlar, axloqiy tamoyillar jamlanmasini o'zida ifoda etadigan keng tushunchadir. Umuman olganda ma'lum bir jamiyatga xos bo'lgan ma'naviy meyorlarni qadriyat sifatida olishimiz mumkin.

Nemis faylasufi M.Scheler va rus olimi N.Berdyayev ilmiy izlanishlarida “Qadriyat inson hayotining ma'nosini belgilovchi ijtimoiy-psixologik hodisa”² sifatida ta'rif berganlar. Ular asosan qadriyatlarni egallashni psixologik jarayon bilan bog'lashga harakat qilishgan.

Jahon ta'lim makonida globalizatsiya yosh avlod tarbiyasiga yangi milliy va umuminsoniy qadriyatlarni kiritishni talab qiladi. Ilmiy nuqtai nazardan Sharq mutafakkirlari yaratgan boy pedagogik xazinani qayta o'rganamiz. Xazinaning didaktik imkoniyatlarini zamonaviy ta'lim tizimiga qo'shamiz. Jumladan, YUNESKO va boshqa xalqaro tashkilotlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, o'rta asrlar Sharq allomalarining ilmiy merosi insoniyat madaniyatida muhim o'rin egallaydi. Sharq allomalarining qarashlari bugun ham shaxsning intellektual va axloqiy rivojlanishiga usuliy asos bo'lib xizmat qiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida”gi 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-sonli Qarori.

² Scheler M. *Der Formalismus in der Ethik und die materiale Wertethik.* – Berlin: Reimer Verlag, 1916. – S. 45–67

Sharq mutafakkirlarining asarlarida shaxs kamoloti masalasi nafaqat bilim berish, balki insoniy fazilatlarni shakllantirish bilan uyg'unlikda ko'riladi. Bu jarayonda quyidagi pedagogik yondashuvlar yetakchi o'rin egallaydi:

Tarbiyaning ijtimoiy yo'naltirilganligi: O'quvchilar ma'naviyatini ijtimoiy hayot, kasbiy ko'nikmalar va milliy an'analar bilan bog'liq holda rivojlantirish.

Didaktik tizimlilik: Ta'lim jarayonida muntazamlik, izchillik va yaxlitlik tamoyillariga amal qilish.

Shaxsga yo'naltirilgan talabchanlik: O'quvchining ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishda hushyorlik va pedagogik mahorat bilan yondashish.

IX-XII asrlar ilmiy yuksalish davri vakillari – Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Imom Buxoriy kabi allomalarning asarlarida komil inson modeli nazariy jihatdan asoslab berilgan. Forobiyning ijtimoiy-axloqiy qarashlari, Ibn Sinoning aqliy va jismoniy tarbiya borasidagi o'g'itlari hamda Imom Buxoriyning hadislaridagi yuksak odob mezonlari bugungi ta'lim tizimi uchun muhim didaktik manbadir. Xususan, Kaykovusning "Qobusnoma" asari insonning shaxsiy sifatlarini (rostgo'ylik, adolatparvarlik, saxovat) shakllantirishda barcha davrlar uchun dolzarb bo'lgan nazariy yondashuv va amaliy tavsiyalarni taqdim etadi.

Ibn Sino tomonidan ilgari surilgan o'quvchilarni kichik guruhlarda o'qitish g'oyasi zamonaviy innovatsion texnologiyalar bilan hamohangdir. Mazkur metod o'quvchilarda hamkorlik, tanqidiy fikrlash va o'z qobiliyatlarini namoyish etish imkoniyatini kengaytiradi. Shuningdek, Abduxoliq G'ijduvoni kabi tasavvuf namoyandalarning insonparvarlik ta'limoti ta'lim jarayonida mehr-muhabbat va axloqiy poklik muhitini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. G'ijduvoniyning "Vasiyatnoma" asaridagi inson qadr-qimmatiga oid fikrlari shaxsga qadriyatli yondashuvning yuksak namunasi.

Yuqoridagi tadqiqotlardan shu ma'lum bo'ladiki, Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari zamon va makon chegaralarini bilmaydigan, inson manfaatlariga xizmat qiluvchi konseptual g'oyalar majmuidir. Ushbu merosni tizimli o'rganish va ta'lim amaliyotiga tatbiq etish, nafaqat yuksak bilim, balki milliy o'zligini anglagan, ma'naviy barkamol avlodni voyaga yetkazishning strategik omili bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston ta'lim-tarbiya tizimida milliy qadriyatlar O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi qonuni", "Milliy tarbiya dastur"larida shaxs kamolotining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, ular milliy o'zlikni anglash, globallashuv sharoitida ma'naviy immunitetni ta'minlashni maqsad qiladi. Raqamli texnologiyalar, globalizatsiya davrida milliy qadriyatlarning pedagogik mohiyati dolzarbligi bilan ajralib turadi. Mamlakatlar rivojlanayotgan paytda milliy o'zlikni anglash, uni saqlash, madaniy birdamlikni saqlash, umuminsoniy qadriyatlarni mustahkamlash, va integratsiya qilish muammolari yuzaga chiqmoqda. Masalan, UNESCOning "Madaniy merosni saqlash, ta'lim orqali ma'naviy rivojlanish dasturlari milliy qadriyatlarning ta'limdagi rolini ta'kidlab, ularni yosh avlodda bag'rikenglik, madaniyatlar aro muloqotni shakllantirish vositasi sifatida baholaydi"³.

Mamlakatimizda bu muammoni tadqiq etgan olimlardan X.Shodiyev "milliy qadriyatlar Yanggi O'zbekiston yoshlari tarbiyasining o'zagidir deb ta'kidlaydi, ya'ni qadriyatlar milliy o'zlikni

³UNESCO. *Intangible Cultural Heritage and Education for Sustainable Development*. – Paris: UNESCO Publishing, 2020. – P. 20–30.

saqlash, ma'naviy tiklanish, va globalizatsiyaga moslashish vositasi sifatida belgilanadi"⁴. Bundan tashqari, D. Karshiyeva yosh avlod tarbiyasida milliy qadriyatlarining tutgan o'rni haqida mulohaza yuritib, ularni jamiyatda va oilada axloqiy asos sifatida tahlil qiladi⁵. Bu fikrlar qadriyatlarni sotsiologik, pedagogik jihatdan tushunishga imkon beradi.

Milliy qadriyatlar tushunchasi fanda "aksiologik-qadriyatlar nazariyasi" doirasida chuqur o'rganiladi. Nemis faylasufi, M.Shelerning "Qadriyatlar ierarxiyasi" asarida qadriyatlar "obyektiv me'yorlar" sifatida ta'riflanadi, ular millatning madaniy hayotida subyektiv tajribaga asoslanib jamiyatdagi axloqiy me'yorlarni shakllantiradi⁶. Sotsiolog E. Dyurkgeymning "Kollektiv ong" asarida milliy qadriyatlar jamiyatni birlashtiruvchi "ijtimoiy faktlar" sifatida ko'riladi, bunda an'ana va urf-odatlar shaxsiy barkamollikni mustahkamlaydi, jamiyatdagi totuvlik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi⁷. Bundan ko'rinib turibdiki, bu fikrlar qadriyatlarni chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

SEL texnologiyasini O'zbekiston ta'limiga integratsiya qilish davrida milliy qadriyatlarning psixologik moslashuvchanlik va emotsional rivojlanishdagi rolini tushunish uchun boshlang'ich sinf yoshida milliy qadriyatlarning shakllanishi urf-odatlar orqali shakllanadi. Masalan, O'zbekiston xalq pedagogikasida bu jarayon ertaklar, dostonlar, laparlar, milliy xalq o'yinlari, vositasida gumanistik xislatlar paydo bo'la boshlaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, 7 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan davr - bu biologik imkoniyat bilan "ijtimoiy talab" o'rtasidagi ko'prikdir. O'qituvchi va ota-onalar bolaning bu davrdagi "to'polonlari" yoki "diqqatsizligi"ni xarakterdagi nuqson emas, balki miya shakllanishining tabiiy bosqichi sifatida qabul qilishlari lozim. Ta'lim tizimi bolaning bu fiziologik chegaralariga moslashgandagina, o'zlashtirish ko'rsatkichlari yuqori, bolaning ruhiy salomatligi esa mustahkam bo'ladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-sonli Qarori.
2. Scheler M. *Der Formalismus in der Ethik und die materiale Wertethik*. – Berlin: Reimer Verlag, 1916. – S. 45–67
3. UNESCO. *Intangible Cultural Heritage and Education for Sustainable Development*. – Paris: UNESCO Publishing, 2020. – P. 20–30.
4. Shodiyev X.H. Milliy qadriyatlar – yangi O'zbekiston yoshlari tarbiyasining o'zagidir // *Inter Education & Global Study*. – 2024. – № 2. – B. 163–168.
5. Karshiyeva D.E. Yosh avlod tarbiyasida milliy qadriyatlarning o'rni // *Qo'qon universiteti xabarnomasi*. – 2025. – № 16. – B. 63–65.
6. Scheler M. *Der Formalismus in der Ethik und die materiale Wertethik*. – Berlin: Reimer Verlag,

⁴ Shodiyev X.H. Milliy qadriyatlar – yangi O'zbekiston yoshlari tarbiyasining o'zagidir // *Inter Education & Global Study*. – 2024. – № 2. – B. 163–168.

⁵ Karshiyeva D.E. Yosh avlod tarbiyasida milliy qadriyatlarning o'rni // *Qo'qon universiteti xabarnomasi*. – 2025. – № 16. – B. 63–65.

⁶ Scheler M. *Der Formalismus in der Ethik und die materiale Wertethik*. – Berlin: Reimer Verlag, 1916. – S. 45–67.

⁷ Piaget J. *The Psychology of Intelligence*. – Geneva: Routledge, 1936 (qayta nashr: 2001). – P. 50–70.

1916. – S. 45–67.

7. Piaget J. *The Psychology of Intelligence*. – Geneva: Routledge, 1936 (qayta nashr: 2001). – P. 50–70.